

## **NOVERBAL VOSITALARNING TARJIMADA AKS ETTIRILISHI**

***Ikromov Shohruhbek Dilshodjon o'g'li,***

*e-mail: ikromovshohrux13@gmail.com*

*Andijon davlat chet tillari instituti*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqola nutqda noverbal vositalarni tarjima qilish va tushunib yetishdagi muammolariga bag'ishlangan. Maqolada o'zbek va rus olimlarining noverbal vositalar yuzasidan fikr va nazariy qarashlari, mavzu bo'yicha yig'ilgan ma'lumot va materiallar umumlashtirilib, qiyosiy tahlil o'tkazish va mazmun-mohiyatini yoritib berish orqali o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** paralingvistik vositalar, noverbal muloqot, noverbal vositalar, lingvo-pragmatika, tarjima muammolari.

Tarjimada noverbal muloqotni tushunib yetish va o'zga tillarga o'girish muammolari hozirgi kunga qadar yetarli darajada mukammal o'rganilmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki noverbal vositalarni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda milliy va xususiylik talab qilib, ularni tarjima qilish uchun tarjimondan o'rganilayotgan tilda nolisoniy vositalarni ham yaxshi o'zlashtirish talab etadi. Nutqda ishlatib kelinadigan paralingvistik (noverbal) vositalar umumiy, milliy va xususiy xarakterga ega ekanligi ilmiy izlanishlarda o'z isbotini topgan. Jumladan, professor A.Nurmonov adabiy aloqalar jarayonida bir tildan ikkinchi tilga ma'lum badiiy asarni tarjima qilishda ham tarjimon faqat shu xalq (millat) tilini bilish bilan kifoyalanib qolmay, balki ularning o'zlariga xos muomala madaniyati, imo-ishoralarini bilishi ham kerak deb aytgan [1;212]. To'g'ri, ayrim holatlarda noverbal vositalar verbal muloqot bilan umumiy yoki uning komponenti o'rnida o'rganilgan. Lekin ushbu xolatlar bilan noverbal vositalarni nutqdagi o'rnini va mazmun-mohiyatini to'liq o'rganilgan deb aytib bo'lmaydi. Ko'pchilik

tarjimashunos olimlarning fikriga ko'ra moddiy borliqni aks ettirishda tillar o'rtasidagi farq unchalik katta emas, ya'ni bu farq tillararo kommunikatsiyani amalga oshirishga yoki uni tarjima qilishga halaqit berolmaydi. Tillararo aloqaning mavjudligi va tarjimaning imkoniyatini kengligini hisobga olib shunday fikrni olg'a surish mumkin: dunyodagi mavjud xalqlarning etnik-madaniy jihatlarining aks etishida barcha tillar uchun muhim bo'lgan umumiy tamoyil yotadi – u ham bo'lsa xalqaro substantiv ma'noning mavjudligidir. Boshqacha qilib aytganda bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilishning imkoniyati borligi sabab, dunyo tillarining barchasi umumiy gnoseologik asosga ega [2].

Bugungi kunga kelib tarjima lingvistik voqelik sifatida emas balki, psixolingvistik voqelik sifatida talqin etilmoqda. Masalan, professor G'aybulla As-Salomning fikricha tarjima tushunchasini ma'nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot: she'r, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog'ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqnlarning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda so'zlashuvchi, "tilmoch"ning hizmatiga muhtoj bo'lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, kinofilmlar o'giriladi. Aslida til buyuk bobokalonimiz Al-Beruniyning ta'rifiga ko'ra "*So'zlovchining tilagini tinglovchiga yetkazuvchi tarjimondir*" [3; B. 36-38].

O'z navbatida, lingvo-pragmatika yo'nalishining rivoji uchun R. Yakobson kabi bir qator rus tilshunosligi olimlarining izlanishlari ijobiy ta'sir qilganligini qayd etish lozim. Masalan, ularning safini N.Arutyunova, Yu.Apresyan, A.Suprun, I.Susov va boshqalar bilan to'ldirish mumkin. Ular orasidan Yu.Apresyaning nazariy qarashlari lingvistik pragmatikani yanada kengroq tushunib yetishga xizmat qilgan bo'lsa, A.Supruning izlanishlari nutqda verbal va noverbal vositalarni ishlatishdagi jarayonlariga oydinlik kiritdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, A.Suprun ilmiy izlanishlarida pragmatika va sigmatika nutqda so'zning tashqi omil (ekstralingvistik) aloqalarini, semantika va sintaktika esa uning ichki (intralingvistik) xususiyatlarini ochib berilishi asoslab berilgan [4; B. 15]. Yuqorida olimlar tomonidan berilgan ilmiy fikrlari va nazariy qarashlari o'zbek va rus tillarida deyarli bir-biriga yaqin. Faqatgina ularda qisman nazariy

qarashlarda va o'rganish usullarida farqliklarni kuzatish mumkin. Chunki, dastlab fanda pragmatika oqimiga asos solinganda ayrim olimlarning qo'shimcha izohlari yoki qarshi fikrlari hozirga qadar ularning izdoshlari tomonidan davom ettirilmoqda. Ammo verbal va noverbal vositalarni lingvo-pragmatika doirasida o'rganish va tarjima qilishdagi muammolari barcha tillarda bir hil kechmoqda. Ularni tarjima qilishda noverbal vositalarni asl mazmuni yoki uning ekvivalenti o'rinda ishlatiladigan iboralarini to'g'ri tanlash kabi muammolar yechimini topish talab etilmoqda. Shu sababli, bugungi kunga kelib tarjima nazariyasi mustaqil fan sifatida bo'y ko'rsatgan bo'lsa ham uning mohiyati turli tarjimashunos olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Ayniqsa nutqda noverbal vositalarni tarjima qilish muammolari yoki uni to'g'ri tushunib yetish masalasi nafaqat xorijliklar, balki boshqa hududda yashovchi millatimiz vakillarida ham qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Ularga barcha noverbal muloqot komponentlari bo'lgan paralingvistik vositalarni kiritish mumkin. Nutqda qo'llaniladigan mazkur turdagi paralingvistik vositalar lingvo-pragmatik jihatlarini namoyon qilib, turli vaziyatlarda turlicha ma'nolarni anglatib keladi. Ayniqsa, ularni bir tildan ikkinchi tilga o'girish yoki tushunib yetishda tarjimon va kommunikantda o'ziga xos murakkablik keltirib chiqaradi. Misol uchun o'zbek tilida "yelkasini qoqish" noverbal ishora harakatining bizga ma'lum bo'lgan: *orqadan chaqirish, qayg'udan yupatish, so'zlariga ishontirish, minnatdorlik bildirish, qilgan ishini maqtash, gapini ma'qullash, tanbeh berish, fikrini izhor qilish, verbal vositalarni jiddiyligini ta'minlash va ovqat tanavvul vaqtida yo'talganda urib qo'yish* kabi 10 dan ortiq semalari mavjud.

Masalan:

**O'zbek tilida** – *Yo'lchi do'stining so'zlariga xaxolab kuldi, ma'qul deganday qo'lini cho'zib, uning yelkasini qoqdi* [5; B. 103].

**Рус тилида** – *Ничего, добреющий малчик, ничего! прибавил он, стукнув Заметова по плечу, я вед не назло, "а по всей то ес любви, играючи", говорю, вот как работник-то ваш говорил, когда он Митку тузил, вот, по старухиному-то делу* [6; С. 146].

Aytish joizki, paralingvistik vositalar nutqda inson ichki ruhiy kechinmalarini ifoda etishda asosiy noverbal muloqot komponenti o'rnida foydalaniladi. Misol uchun *qo'lni chap ko'kragiga qo'yish* — mehrni; *o'ng qo'li bilan bo'yni orqa qismini ushlash* — ikkilanishni; *tomoqni qo'l bilan ushlash* — tomoq og'riqni; *suhbatdoshi yelkasiga qo'lni qo'yish* — do'stlikni; *suhbatdoshi yelkasini qoqish* — xamdardlikni; *yelka qisish* — taajjub yoki bilmaslikni; *qo'lni mushtlab ko'kragiga takror urishi* — o'zligini; odatda og'riq joyini ko'rsatish: *qorin yoki belni ushlash* — kasallikni; *ikki qo'li bilan ikki bel (biqin)ni ushlash* — diqqatini jalb qilishni; *o'ng qo'lni mushtlab bel (biqin)ni ushlash* — g'azabni va *ikki qo'llab qornini ushlash* — ta'zimni ifoda etishi mumkin. Lekin bu yerda noverbal vositalarni nutq kontekstiga qarab aniqlashni tavsiya qilamiz. Chunki verbal vositalar ko'p ma'nolik bo'lgani singari, ayni bir noverbal vosita ham turli ma'nolarga ega. Ular muloqotda aniq ifodalanishi lozim. Ayniqsa, qo'shimcha verbal va noverbal vositalar bilan birga qo'llangan taqdirda, nutqda ifoda etishdagi asl ma'nosini saqlab qoladi.

Masalan:

**O'zbek tilida** – *Jo'ra qo'llarini yoyib, yelkasini ojizona qisib umidsiz ekanini ifoda qildi* [7; B. 9].

**Рус тилида** – *Ваше несчастье смешит меня, сказал Атос, пожимая плечами: мне хотелось бы знать, что вы скажете, когда я расскажу вам одну любовную историю* [8; С. 254].

O'z navbatida, noverbal vositalarni qo'llashda suxbatdosh uchun mumkin bo'lgan tushunmovchilik kompleks bajarilishi lozim bo'lgan noverbal muloqotni qisqartirilish jarayoni ham muhim o'rin egallaydi. Misol uchun inson suxbatdoshining berilgan savol yoki javobidan qoniqish xosil qilmaganda xamda taajjublanganda yoki ikkilanganda *yelkasini qisish, qoshlarini ko'tarish, peshonasini tirishtirish, ko'zini olib qochish, labini burishtirish, kaftlarini ikki yonga tashlab ochiq xolatga keltirish, chuqur xo'rsinish va boshini chayqash* kabi kompleks harakatlar yordamida ifoda etadi. Bundan tashqari, o'g'irish deganda biz nafaqat bir tildan ikkinchi tilga verbal yoki verballashgan ishora

harakatlarini tarjima qilish, balki tasviriy san'at va musiqiy kompozitsiya kabi noverbal signal vositalarini nutqqa ko'chirishni ham tushunishimiz lozim. Chunki rassom va kompozitorlar tomonidan o'z ijodiy asarlarida insonlarning ichki kechinmalarini so'zlarga, ularni esa rang tavsir va musiqa ohanglariga ko'chirish (kodlash) orqali yetkazib berishi jarayonlarini verbal so'zlarga qayta o'girish (dekodlash) xolatlari ham mavjud. Jumladan, rus olimi I.Gorelov musiqiy tilni verbal vositalarga tarjima qilish jarayonini psixolingvistika fani nuqtai nazaridan talqin qilishga harakat qilgan [1; B.47]. Noverbal muloqotni kodlash yoki dekodlash insonlarning ruhiy xolatiga ham bog'liq. Ayniqsa, sahnada pantomimik akter tomonidan imo-ishora harakatlari yordamida ma'lum bir hikoyani tasvirlanishi turli tomoshabinlar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin.

O'rni kelganda aytish mumkinki, tarjima tufayli jahon adabiyoti durdonalari — arab ijodiy fantaziyasining mahsuli "Ming bir kecha", hind ertaklari "Kalila va Dimna", Gomerning "Iliada" va "Odisseyasi", Umar Hayyom ruboiylari, A.Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni, Boburning "Boburnoma", Dante, V.Shekspir, Servantes, Bayron, Volter, I.Gyote, A.Pushkin, N.Gogol, L.Tolstoy, Daniel Defo, Robindranat Tagor asarlari jahon halqlarining tillariga qayta-qayta tarjima qilinib, yer yuzining turli qit'alarida asrlar davomida bilim va ma'rifat manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Bu asarlarning aksariyati bevosita emas, balki bilvosita yo'l bilan o'girilgan. Shuning uchun mazkur asarlarning tarjimlarida g'aliz jumlar, semantik nuqtai nazardan noadekvat, ya'ni mos kelmaslik holatlari uchramaydi. Aslida ham tarjima jarayonida milliy etnik tushunchalarni o'girishda tasviriy yo'lni tanlash ma'qulroq ko'rinadi. Chunki asliyatga yaqin bo'lmasa ham semantik yo'qotishlar minimumga keltiriladi. Bu borada professor L.Barxudarov shunday yozadi: "*Tarjima matni hech qachon to'la va asliyat matnga absolyut ekvivalent bo'la olmaydi*" [3; B. 36-38]. Shuning uchun bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilayotganda semantik yo'qotishlarni minimal holatga keltirish uchun ma'no turlarining qaysinisidir qurbon etilishi kerak. Masalan, rus adibi L.Penkovskiy millatimiz buyuk shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin" dostonini rus tiliga tarjima qilishda "*плакат*" — "*yig'lamoq*" tasvirlovchi so'z o'rniga "*рассыпал жемчуг слез*"

hamda "разбудил" — "yўg'otdu" so'zi o'rniga esa "Солнечный рубин открыл глаза Шануру" perifrastik iborasidan mohirlik bilan foydalangan. O'z navbatida, o'zbek tiliga xos bo'lgan etnik-madaniy xususiyatni ifoda etuvchi "Atlas kiygan Sarvinozim", "Onang aylansin", "bo'yularinga girgitton", "bo'yularinga bo'y tumor", "ko'z tegmasin" va "yomon ko'zlardan Yaratganning o'zi asrasin" kabi paralingvistik vositalardan tashkil topgan perifrastik iboralarini boshqa tillarga o'girish tarjimashunoslik fanining dolzarb muammolaridan bir bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham ekzotik leksika sifatida qabul qilingan o'zbek tilidagi "paranji", "chimildiq", "tumor"; rus tilidagi "ношлост", "штушеваются", "хандра" kabi leksemalarini boshqa tillarga semantik yo'qotishsiz tarjima qilish mumkin emas deb hisoblaymiz. Demak, o'zbek tilida noverbal vositalarni rus tiliga o'girishda uning asl tarjimasini yoki ekvivalentini topish kabi muammolar, ayniqsa qo'llanilgan paralingvistik vositalarni tinglovchi tomonidan to'liq tushunib yetishda o'ziga xos murakkabliklar mavjud. Shu sababli, lingvistikada noverbal vositalarni lingvo-pragmatik jihatlari va tarjima qilish yetarli darajada mukammal o'rganilmagan yo'nalishlarga kiritish mumkin. Uni ilmiy nuqtai nazaridan o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar**

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Akademnashr, 2012.
2. Колшанский Г. Соотношение субъективных и объективных факторов в языке. –М.: Наука, 1975.
3. Rahimov S. va boshq. Tarjimaning lingvistik mohiyati nimada? // Tarjimaning lingvokognitiv, kommunikativ-pragmatik va lingvokulturologik aspektlari. –Andijon: ADU, 2015.
4. Супрун А. Методы изучения лексики. –Минск: БГУ, 2009.
5. Оубек. Qutlug' qon. Uchinchi tom. –T.: G'ofur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969.
6. Достоевский Ф. Преступление и наказание. – М.: АСТ., 2015.
7. Клаус Г. Сила слова: гносеологический и прагматический анализ. –М.: Прогресс, 1967.
8. Дюма А. Три мушкетера. –М.: ЛитРес, 2015.